



KICHIK YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY TARBIYA ASOSIDA TARBIYALASHNING O'ZIGA HOS JIHATLARI

Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Mamatoyeva Zilola Xayrullo qizi
Ilmiy rahbar: I.A.Oxunov

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233200>

Annotatsiya: Mazkur mavzuda kichik yoshdagi bolalarga milliy tarbiyani singdirishning o'ziga xos jihatlari, pedagogik yondashuvlari va samarali usullari o'rganiladi. Jumladan, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar, an'anaviy bayramlar va marosimlar orqali bolalarda milliy o'zlikni anglash jarayoni shakllantiriladi.

Tayanch so'zlar: urf-odatlar, qadriyatlar, manaviyat, tarbiya, oila, oylaviy tarbiya, umumbashariy qadriyatlar, tamoyil, erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat va fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum.

Har bir xalqning tarbiya an'analari uning madaniyati, tarixi va qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq. Kichik yoshdagi bolalarni milliy tarbiya asosida tarbiyalash ularning shaxs sifatida shakllanishiga, vatanparvarlik ruhida o'sishiga va ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezident I.A.Karimov "Yuksak manaviyat - yengilmas kuch" nomli asarida o'sib kelayotgan yosh avlodga yuksak ma'naviyatni shakllantirishning mazmun-mohiyati, uning samarali omillari va vositalari batafsil yoritilgan. Bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalash mazmuni asosini milliy va umumbashariy qadriyatlar tashkil etib, uni amalga oshirishda xalqimizning boy merosi, samarali vosita va usullaridan foydalanish zarurati mamlakatimizda olib borilayotgan davlat talim – tarbiya siyosatining dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tarbiya ijtimoiy hayotning uzluksiz tushunchasi bo'lib, u tarixiy harakterga egadir. Qadimgi Gretsiyada va Rimda tarbiyaning maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodni yaxshi fazilatlarga o'rgatish, unda fuqarolik, vatanparvarlik, jasulik va sadoqat kabi sifatlarni rivojlantirish bo'lgan.

Respublikamizning hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqilligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy zamin va qadriyatlarini mustahkamlash uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida bilim berishimiz hamda milliy ruhda tarbiyalashimiz shartdir. Bu vazifalarsiz ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlay olmaymiz. Chunki jamiyat manfaati yo'lida o'zidagi barcha bilim, qobiliyat va iste'dodini baxshida etadigan yetuk insonlar, uddaburon yoshlar, fidoyilar bo'lmasa, O'zbekistonni dunyodagi eng ilg'or davlatlar safiga qo'shishi qiyin.

Yoshlarni tarbiyalash uchun birinchi galda sharq mutafakkirning, ma'naviy meroslari hamda milliy qadriyatlar dasturi amal bo'la oladi. Abu Nasr Farobiy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Ismoil Al Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Firdavsiy, Amir Temur, A.Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli va shular singari boshqa aql egalarining ijtimoiy siyosiy, falsafiy va ta'lim-tarbiya sohasidagi ta'limotlariga, xalqimizning bebaho qadriyatlariga tayanib ish ko'rilsa, tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallikni kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, yoshlarni tarbiyalab yetishtirish - muqaddas burchimiz, or-nomusimiz. Lekin, ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash oddiy ish emas. U kunlar, oylar va hatto o'n yillab oliy maqsad yo'lida sabr-toqat, chidam va qat'iyatlikni, irodali bo'lishimizni talab etadi.



Yosh avlodni tarkib toptirish, tarbiyalash ishini yoshlikdan, oiladan boshlash kerak. Ma'lumki, jamiyatimizning asosiy bo'g'inlaridan biri - bu oiladir.

Oila insoniyatning umrguzaronligi o'tadigan, barcha shodlik-u quvonchlari, tashvishlarining o'zaro bog'liqligidan iborat bo'lgan ijtimoiy-tarixiy hodisadir.

Qadim-qadimdan oilaga - Vatan qo'rg'oni, Vatan ichidagi - Vatan deb qarab kelingan. Oilaviy hayot g'oyat murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Bu degani oila qanday bo'lsa, farzandlar ham shunday bo'ladi. Oilaviy tarbiyaning murakkabligi shundaki, har bir oila o'ziga xos kichik uyushma bo'lib, tarbiya ishida o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Ana shuning uchun ham oilaviy tarbiyaning shakl va uslublarini umumlashtirish va unga biror bir tavsiyalar berish noqulay va qiyindir. Ota-onalar qanchalik ma'naviy boy, e'tiqodli va yuqori ma'lumotga ega bo'lsalar, shu darajada takomillashgan uslub orqali o'z farzandlarini tarbiyalaydilar. Ular shaxsiy namunalari, bolalari bilan birgalikda ishlash, ularni mehnat faoliyatiga tortish orqali ham tarbiyalaydilar.

Xalqimiz mehnatni bosh tarbiyachi deb ataydi. Sababi inson tarbiyasi asosan mehnatga bo'lgan munosabatlariga qarab belgilanishi bejiz emas. Mehnat hayot demakdir. Mehnat orqali shaxsning axloqiy sifatleri - mehnatsevarlik, yerga va tabiatga muhabbat, suvni isrof qilmaslik, sahiylik, har bir so'mning qadriga yetish, qahramonlik, mehnat baxt keltirishini anglash kabilar qaror topadi.

Ko'p oilalarda bolalarni birinchi navbatda biror hunarli bo'lishiga harakat qilinadi. Kasb tanlashdek hayotiy masalani hal etishda ham yoshlarga oila yordam berishi kerak. Bunda oiladagilarning mehnat an'analari, ota-onalarning shaxsiy namunalari katta ahamiyatga ega. Bunda avvalo, yoshlarning qiziqishi, uquvi, oila imkoniyatlari, jamiyat ehtiyoji nazarda tutilmog'i kerak.

Har bir ota-ona o'z farzandini jismonan baquvvat, sog'lom, psixologik jihatdan muammolarsiz o'sishini istaydi, shu niyat yo'lida intiladi, bor kuchini, hayotiy tajribalarini va imkoniyatlarini safarbar etadi. Bolaga nima yaxshi-yu, nima yomon, nimalar ta'qiqlanganligini o'rgatmoqchi bo'lsangiz, quyidagi tamoyillarga amal qilishingiz kerak:

O'z mavqeingizni qanday saqlaysiz - bosiq, tinch va samarali? Avvalo "men aytganday bajar" tamoyilidan holi bo'lishingiz lozim. Tarbiyalash - bu namuna ko'rsatish demakdir. O'zimiz amal qilmaydigan qonun va qoidalarni o'rnatishga urinishning foydasi yo'q.

Ikkinchi tamoyil - bu aniqlik va doimiylik. Kuniga yuz marta "yo'q" deyish, bir narsani qaytaraverish - bu foydasiz mashg'ulot.

Yana muhim tamoyillardan biri - har bir oila a'zosining mavqeini, o'rnini saqlash. Mavqe negizida yoshdagi farqlarni bilish lozim. Bolalar o'zlarini (xatto katta yoshlilar) katta yoshli hisoblamaydilar. Katta yoshlilar bolalarga tengqurdek muomala qilishganda, ularda bezovtalikni keltirib chiqaradilar. Yoshni farqlash haqidagi tushuncha bolaning o'zligini anglash uchun muhimdir.

Bu tamoyillar bolaning necha yoshligiga qaramay amal qiladi, yoshdan faqat nimalar ta'qiqlanishi talab etiladi. Bir necha vaziyatlardan asosiy yo'nalishlarni aniqlashga harakat qilib ko'ramiz.

Ikki yoshgacha. Bola yurishni boshlaydi va atrof-muhitni faol o'rganadi: birinchi qoida va cheklashlar uning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Uning "ixtirolarin" rag'batlantiring, lekin xavfsizlikka yo'naltiring."Yo'q" deb qattiq turib oling, javob bera olmasa ham u sizni tushunadi. Bolaning "chegaradan" o'tishi, tatib ko'rishni, ushlab ko'rishni xohlashi uning qiziquvchanligiga bog'liq."Ha" va "Yo'q" so'zi o'rtasidagi tafovutni saqlay biling. Shunda bolaning atrof-muhitni o'rganishi to'g'ri ta'minlanadi. Bolaning hayotiga xavf soluvchi narsalarni "harakat zonasidan" olib qo'ying.

Ikki yoshdan uch yoshgacha. Bu yoshda bola kattalardan ajralishga harakat qiladi va o'zining yakkaligini namoyish etadi, ammo kattalarga hali ham bog'langan. Agarda u sizning taklifingizni rad etsa, hayron bo'lmang. Bu bilan u o'zining mustaqilligini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Sabr qiling, uning qaysarligini yengish uchun "ayyorlik" bilan boshqa mashg'ulotlarga chalg'iting. Qattiqqo'llik, kuch ishlatish yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bolaga



chorrahadan yugurib o'tishni va rozetkani ushlashni man etayotganda, bular sizning xohishingiz emas, uning xavfsizligi uchunligini tushuntiring.

U boshqa bolalarni uryapti, tishlayapti, ularning o'yinchoqlarini sindiryapti. Bolaning boshqalarga va o'ziga ziyon yetkazishini ta'qiqlayotganda qattiqroq turing. Zo'ravonlik qilishni ta'qiqlash lozim. Bu bilan bolalar boshqa odamlarni va jamiyat qonunlarini hurmat qilishga o'rganadilar. Gohida ota-onalar kuch ishlatish yo'li bilan o'zida his qilib ko'rishi uchun uning xatta-harakatlari nimalarga olib kelishini bolaga ko'rsatib bermoqchi bo'ladilar. Jismoniy jazo bolada og'riqni va kamsitilishni, qo'rquv va agressiyani keltirib chiqaradi. Bola bilan gaplashing, har safar uning xulqi xatarli ekanligini tushuntirish uchun yordam beradigan so'zlarni toping, zo'ravonliksiz harakat qilishga o'rgating.

Uch yoshdan olti yoshgacha har bir farzand mehrga, erkalashga muhtoj. Bunday noverbal (gap-so'zsiz) munosabatlar bolaga ota-onasining qo'llab-quvvatlashini his etishiga va hayotda to'g'ri yo'l topishiga yordam beradi. Agar bola haddan tashqari erkalanishga muhtojligini ko'rsatsa, unga erkalanish va muloyimlikni faqat quchoqlashish, o'pish orqali emas, balki so'zlar yordamida ham bildirish mumkinligini tushuntiring. So'zlar yordamida biz unga chegaralanishni o'rgatamiz.

U maktabga borishni xohlamayapti. Kichik o'quvchi o'ziga begona hududga tushib qoldi. Uning moslashishi uchun vaqt kerak. Bundan tashqari u ko'p vaqt yaqinlarisiz qoladi, bunga ham ko'nikish kerak. Uni tinglang, uning his-hayajonlarini tushunishga harakat qiling, lekin sizni ko'ndirishiga yo'l qo'ymang. Gohida onalar bolaning qaysarligiga qarshi bora olmaydilar, bunday vaziyatlarda otasi, amakasi yoki tog'asi qo'shilishi mumkin. Aynan ularga katta bo'lishning vaqti kelganligini tushuntirish oson bo'ladi. Olti yoki olti yarim yoshli bolaning maktabga psixologik tayyor emasligi ayrim hollarda uchrab turadi. Bunday vaziyatlarda psixolog yordam bera oladi. Ammo bola maktabga borishni xohlamasa, u o'yin faoliyatiga hali tuymaganligidan va maktabga psixologik tayyor emasligidan dalolat beradi.

Yetti yoshdan o'n yoshgacha. U sinfdoshlaridan ko'chiryapti. Ko'chirtirish bolalar hamjamiyatining obro'siga kiradi. Ko'chirtirishga berish do'stiga yordam, u bilan bo'lishishni bildiradi. Siz farzandingizga o'rtoqlari bilan o'yinchog'ini va shirinliklarini bo'lishishni, yordam berishni o'rgatganingizni eslang. Bunday mehribonlik uquvidan maktabda ko'chirtirish maqsadida foydalaniladi. Unga sinfdoshlariga nisbatan yaxshi munosabat emasligini, ko'chirish yomonligini, oqibatda o'z bilimlaridan mahrum bo'layotganligini tushuntiring. Sizning keyingi vazifangiz - farzandingiz qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganligini va nega yana ko'chirishga majbur bo'lganligini aniqlash va albatta unga yordam berishga harakat qilishdan iborat.

Qadriyat - voqealardagi muayyan hodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan falsafiy-ijtimoiy tushuncha. Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar:erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go'zallik, axloqiy xislat va fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar qadriyat hisoblanadi.

Qadriyatlar umumbashariy, umuminsoniy, milliy, mintaqaviy, shaxsiy bo'lishi mumkin. Qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o'z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega tushuncha bo'lib, avvalo ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyat, insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, xatti-harakatlar majmuasi sifatida yuzaga kelib, ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati, xatti-harakatini ma'lum yo'nalishga buradigan, tegishli meyorga soladigan ma'naviy hodisaga aylandi va aylanmoqda. Inson butun umri davomida son-sanoqsiz qadriyatlar olamida yashaydi.

Insoniyatni o'rab turgan borliq, tabiiy va ijtimoiy atrof-muhit, tirik va notirik tabiatning eng muhim tomonlarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga egadir. Bunday qadriyatlar jamiyat uchun hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, abadiy, mutlaq va muqaddas qadriyatlardir.

Odamzotning yashashi, umrguzaronligi, farzandlari hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy va axloqiy sohalariga taalluqli bo'lgan umumjamiyat miqyosidagi qadriyatlar butun insoniyat va jamiyatga tegishli bo'lganidan, umuminsoniy qadriyatlar deb



ataladi. Shunday qadriyatlar ham mavjudki, ular muayyan bir millat, elat va xalq hayoti, turmush tarzi, ularning o'tmishi, kelajagi va yashayotgan ijtimoiy muhiti bilan bog'liqdir. Ularni milliy qadriyatlar deyiladi.

Eng oliy qadriyat - inson, uning faoliyati, turmush tarzi, xatti-harakati, ishonch-e'tiqodi, umr ma'nosi, xulq-odobi bilan bog'liq shaxsiy qadriyatdir. Ammo umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar boshqa qadriyatlar uchun umumiy mezon vazifasini o'taydi.

Tarbiyaga ta'lim to'g'risidagi qonunda shunday ta'riflagan " tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon" Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi. Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda insonlarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish. Tarbiyaning umumiy vazifalari: 1.jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish; 2.jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi «inson kapitali»ni tayyorlash; 3. madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash; 4.ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarining qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish dan iborat Tarbiya turlari turli sohalarga ko'ra tasnif etiladi. Ko'proq umumlashgan tasnif o'zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani qamrab oladi. Tarbiyaning yoshlar ongiga singdirish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak buning uchun birinchi navbatda " Tarbiya" fanining sinflarning butun kesimida o'tilishidir bu o'z o'rnida quvonarli hodisa chunki "Tarbiya " fani hozirgi kunda 11-sinflarga ham o'qitilyapti. Shuning uchun ham tarbiyani biz yoshlarimizning ruhiy dunyoqarashi o'stiradi va rivojlantiradi. Xohlaymizmi yo'qmi internet rivojlanyapti, zamon takomillashib bormoqda bu bilan "ommaviy madaniyat" ham kirib kelyapti bu " ommaviy madaniyat " o'zi bilan bir qatorda bizning milliylikimizga ta'sir ko'rsatadigan turli xildagi illatlarni ham olib keladi. E'tiqodi butun, ruhiy dunyoqarashi pok va eng muhimi o'zinong milliy qadriyatlariga sodiq inson bu illatlarga qarshi tura oladi. Milliy tarbiya esa milliy qadriyatlar uyg'unligi shakllanadi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.X.hodjajev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" "Sano-standart" nashriyoti 2017.125-126-betlar
2. Ta'lim to'g'risidagi qonun O'RQ-637-con 23.09.2020.
3. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch".T Ma'naviyat,2008 y .
4. I.A.Oxunov "Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish" darslik Andijon - 2024.
5. I.A.Oxunov "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishning pedagogik tizimi.Monografiya. Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" – 2021.